IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934
IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245
SPECIAL ISSUE, VOLUME 5, ISSUE 2, 2023

SOG'LIQNI SAQLASH ASOSIY TUSHUNCHALAR VA TAMOYILLARI

Umurzaqova Muattar Rustamovna

ADTI ijtimoiy gigiena va SSB kafedrasi assistenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada sog'liqni saqlash asosiy tushunchalar aholi orasida ushbu tamoyillarini keng targ'ib qilish,sog'liqni saqlashdagi so'ngi yangiliklar haqida tanishib chiqamiz.Ushbu maqoladan maqsadimiz aholi o'rtasida sog'liqni saqlash chora tadbirlarini targ'ib qilisdan iborat.

Kalit so'zlar

Ijtimoiy, iqtisodiy, ambulatoriya,poliklinika, genetika, feldsher, yuqumli kasallik.

Sog‘liqni saqlash – aholi sog‘lig‘ini muhofaza qilishga yo‘naltirilgan ijtimoiy, iqtisodiy va tibbiy tadbirlar tizimi. Sog‘liqni saqlash kasalliklarning oldini olish va davolash, sog‘lom turmush va mehnat sharoitini yaratish, yuqori mehnat qobiliyatini va uzoq umr ko‘rishni ta’minlashga qaratilgan umumiy tadbirlarni ko‘zda tutadi; uning asosiy vazifasi bemorlarga zamonaviy, ixtisoslashgan hamda mos tarzda yordam ko‘rsatishdan iborat.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng aholi salomatligini muhofaza qilish sohasini qaytadan isloh qilish boshlandi, Sog‘liqni saqlash tizimining asosiy tamoili – profilaktik yo‘nalishni tiklash; uning zamonaviy va samarali usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish; onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish tadbirlarini kuchaytirish; tibbiy ta’lim tizimi va kadrlar tayyorlash sohasini takomillashtirish; ilmiy tadqiqot ishlarini davr va jamiyat hayotining talablaridan kelib chiqqan holda qayta tashkillashtirish; mamlakatda sifatli va yetarli miqdorda doridarmon, tibbiy ashyolar hamda shu sohaga taalluqli texnik vositalar ishlab chiqaradigan sanoat vujudga keltirish; Sog‘liqni saqlash muassasalarining moddiy texnik bazasini yanada yaxshilash; davolashprofilaktika muassasalarining bir qismini davlat tasarrufidan chiqarib, mulkchilik shaklini o‘zgartirish asosiy vazifa qilib qo‘yildi.

O‘zbekistonda Sog‘liqni saqlash ishlarini O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saklash vazirligi boshqaradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida Sog‘liqni saqlash vazirligi, viloyatlar, shaharlar hamda tumanlarda tegishli boshqarma yoki bo‘limlar mavjud. Respublikada Seni rivojlantirishda O‘zbekiston Respublikasi Kasaba uyushmalari federatsiyasi, shuningdek, „Sog‘lom avlod uchun“ xalqaro xayriya jamg‘armasi, „Qizil yarim oy“ jamiyati, „Nuroniy“ jamg‘armasi va boshqa o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda (qarang Ijtimoiy jamg‘arma).

Bozor munosabatlariga o‘tish Sog‘liqni saqlash sohasiga ham yangi talablar qo‘ydi. Xususan, ma’muriyboshqarish sarfharajatlarini kamaytirish; bemorlarni davolash jarayonida kunduzgi kamharajat va samarali usullardan foydalanish; shifoxonalar ish hajmining bir qismini poliklinikaga

ko‘chirish, kam samarali o‘rinlar sonini qisqartirish; shartnoma asosida bajariladigan ishlar uchun haq olish va boshqa choralar ko‘rilmoqda.

Mamlakatda Sog‘liqni saqlash sohasidagi islohot bosqichmabosqich olib borildi. Birinchi boskichda (1991—94 yillar) butun e’tibor onalar va bolalar sog‘lig‘ini muhofaza qilish xizmatini takomillashtirish, demografik ko‘rsatkichlarni barqarorlashtirish, yuqumli kasalliklarni kamaytirishga karatildi.

Ikkinchi bosqichda (1994—98 yillar) dorixonalar va bir qancha davolashprofilaktika muassasalari xususiylashtiriddi, ambulatoriya poliklinika xizmati rivojlantirilib qayta tuzildi. Natijada, aholining kasalxonada yotib davolanishi 1997-yildagi 18,3% o‘rniga 2001-yilda 13,8% ga kamaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxdamasining „O‘zbekiston Respublikasi qishloqlari ijtimoiy infrastrukturasini 2000-yilgacha bo‘lgan davrda rivojlantirish dasturi to‘g‘risida“gi qaroriga (1996-yil 21 may) muvofiq, Sog‘liqni saqlash sohasida mutlaqo yangi muassasa – qishloq vrachlik punktlari (QVP) tashkil etish va aholiga dastlabki feldsherlik yordami emas, balki malakali vrachlik yordami ko‘rsatish ko‘zda tutildi. QVGT uchun hamma ko‘rsatkichlar – moddiy ta’minot, kadrlar, zamonaviy asbobuskunalar va doridarmonlar bilan ta’minlash bo‘yicha xalqaro standartlarga mos keladigan maxsus mezon ishlab chiqildi.

1998-yildan Sog‘liqni saqlashning rivojlanishida yangi davr boshlandi – 1998-yil 10 noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan 1998— 2005-yillarda Sog‘liqni saqlash tizimini qayta qurish Davlat dasturi qabul qilindi. Unda mamlakat aholisiga tibbiy yordam ko‘rsatish sifatini oshirish tadbirlari ko‘rsatib berildi. Bu dastur asosida Sog‘liqni saqlashning birlamchi bo‘g‘inini mustahkamlash va umumiy vrachlik amaliyotini rivojlantirish tadbirlari amalga oshirildi. Hamma viloyatlarda QVPning keng tarmoklari tashkil etildi, natijada ikki bosqichli, ya’ni QVP hamda tuman markaziy shifoxonasi orqali tibbiy yordam ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi. Mazkur ishlar Jahon banki bilan hamkorlikda „Salomatlik“ loyihasi asosida amalga oshirildi. Bu Sog‘liqni saqlashning birlamchi bo‘g‘ini muassasalarini boshqarish va moliyalashtirishning yangi usullarini ishlab chiqish, tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash va umumiy amaliy tibbiy xodimlar tayyorlash imkonini berdi.

Shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish tizimining yangi shakli joriy etildi. Natijada mamlakatning hamma hududlarida shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatishga, uyga vrach chaqirish bilan malakali tibbiy yordam ko‘rsatish o‘rtasidagi vaqtni ancha qisqartirishga muvaffaq bo‘lindi. g‘oz. Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi, Nukus sh. va barcha viloyat markazlarida uning filiallari hamda markaziy tuman va shahar kasalxonalari bo‘limlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularda kadrlar tayyorlash va ular malakasini oshirish, favqulodda vaziyatlarda tibbiy yordam ko‘rsatish ishlari amalga oshiriladi.

Tibbiy kadrlar tayyorlashda ijobiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida o‘qish muddati 7 yilga uzaytirilib, bakalavr va magistrlar, shuningdek, oliy malakali tibbiy hamshiralar – qamshiralar ishi bakalavrlari tayyorlanadigan bo‘ldi.

Onalar va bolalarni muhofaza kilish xizmatini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari uzoq muddatga mo‘ljallangan Davlat dasturlarida ["Onalar va bolalar skriningi" (1998), „Sog’lom avlod“ (2000), „Ona va bola“ (2001), „Ayollar va o‘sib kelayotgan avlodlar sog‘lig‘ini mustahkamlash bo‘yicha qo‘shimcha tadbirlar to‘g‘risida“ (2002)] belgilab beriddi. Ekstragenital kasalliklarni aniklash va bunday bemorlarni soglomlashtirish uchun fertil yoshdagi ayollarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish ishi yanada jonlantirildi, ularni kontratseptiv vositalar bilan ta’minlash hajmi ko‘paytirildi, aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida barvakt va yaqin qarindoshlar bilan turmush qurishning salbiy oqibatlari, ekstragenital kasalliklari bor ayollarda homilador bo‘lish va tug‘ishning oldini olish buyicha tushuntirish ishlari ancha faollashtirildi. Tug‘ma nuqsonli va irsiy kasalligi bor bolalarning tug‘ilishi oldini olish maqsadida onalar va bolalarda skrining o‘tkazish tizimi tashkil etildi, genetika Davlat registrini yaratish ishlari olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 9 noyabr kuni sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish, hududlar aholisini sifatli tibbiy xizmat bilan qamrab olish, tibbiyot muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash borasidagi islohotlar natijalarini tahlil qilish va istiqboldagi ustuvor vazifalarni belgilashga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Bu haqida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-saytida ma’lum qilingan.

Davlatimiz rahbari barcha islohotlardan asosiy maqsad odamlar hayotini yaxshilash ekani, sifatli tibbiy xizmat bu borada muhim o‘rin tutishini ta’kidladi.

Keyingi ikki yilda Prezidentning sohaga oid 50 ta farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining 70 dan ziyod qaror va farmoyishlari qabul qilindi. 6 ta yangi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tashkil etilib, ularning soni 16 taga etdi. Xalqimizga yanada qulay bo‘lishi uchun hududlarda ularning 10 ta filiali ish boshladi. Tuman va shahar shifoxonalarida 306 ta yangi ixtisoslashgan bo‘limlar, 1 ming 200 ta tez tibbiy yordam shoxobchasi ochildi.

Umuman olganda, joriy yilda tibbiyot sohasiga davlat byudjetidan 2017 yilga nisbatan 40 foiz ko‘p mablag‘ ajratildi. Yig‘ilishda kelasi yil sohaga qariyb 30 foiz ko‘p mablag‘ yo‘naltirish rejalashtirilgani qayd etildi.

Prezidentning kuni kecha qabul qilingan “Davlat tibbiyot muassasalari va sog‘liqni saqlashni boshqarish organlari xodimlarini moddiy rag‘batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori sohadagi yana bir ijobiy yangilik bo‘ldi. Unga muvofiq, tibbiyot xodimlarining oylik maoshi 1 dekabrdan 20 foizga, 2019 yil 1 apreldan yana 15 foizga oshiriladi.

Farmon va qarorlar chiqarilib, sohaga shuncha imkoniyatlar yaratildi, dolzarb masalalar hal qilib berildi. Lekin sog‘liqni saqlash tizimida kutilgan natijalar ko‘rinmayapti. Ayniqsa, tumanlar, chekka qishloqlardagi aholi tibbiy xizmatdagi jiddiy va tub o‘zgarishlarni o‘z hayotida sezayotgani yo‘q, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha strategiyasi tugrisida”gi Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi Konun hujjatlari t'plami. – Toshkent, 2017. – B. 39.

2.Asqarova N.A., Namozov M.X. VRACH VA Bemor O'rtasida Ijobiy MUNOSABAT OLISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI // Ijtimoiy tadqiqot markazi konferentsiyalari to'plamlari. – Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro, 2016. – No. 7. – 42-43-betlar.

3.Axmedova M.T. DAVLATNING ICHKI VA tashqi SIYoSATIDA AXBOROT XAVFSIZLIGI //HUQUQIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2020. – Yo‘q. MAXSUS 2.

4.Barotov Sh.R. Uzbekistonda psixolog hizmat asoslari. – Toshkent, 2006 yil.

5.Boyko Yu.P., Kaminskiy G.D., Seltsovskiy P.P., Appenyanskiy A.I., Kyrov N.E., Goncharova E.L., Petuxov V.A., Kaminskaya E.V. Favqulodda vaziyatlarda psixoterapevtik va tibbiy-psixologik yordamni rivojlantirish strategiyasining ilmiy asoslanishi va ularning oqibatlari: Uslubiy tavsiyalar (32-son). - Moskva: Sog'liqni saqlash qo'mitasi. Moskva hukumati. 2001 yil.

6.Bekmirov T. O'smirlardagi nevrozlarning psixologik xususiyatlari // Jamiyat va innovatsiya. – 2021. – T. 2. – Yo‘q. 10/S. – 541–547-betlar.

7.Guldan V.V., Nazarenko Yu.V. Sog'liqni saqlashda psixologik xizmat: holati va istiqbollari. // Psixologiya savollari. 1991. No 2. – B. 177–179.

8.Qayumova D.T. Menopauzadagi anksiyete-depressiv kasalliklarning differentsial terapiyasi // Reproduktiv tibbiyot bo'yicha IX Xalqaro Kongress materiallari. – Moskva, – 2015. – 19–20-betlar.

9.Matveeva E.V. Psixologik xizmat. - Kirov: Vyat GGU nashriyoti. 2007. – 63 b.

10.Melibayeva R. N. va boshqalar. Talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishning psixologik mexanizmlari // Xalqaro ilmiy va texnologik tadqiqotlar jurnali. – 2020. – T. 9. – Yo‘q.